

ÖZBEKSTAN RESPUBLİKASI
JOQARI HAM ORTA ARNAWLÍ BILIMLENDIRIW MINISTRIGI

ÄJINIYAZ ATINDAĞI NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI



«Tálimdi jetilistiriwde innovaciyalıq usılda
oqtıw hám tárbiyalaw» atamasındağı
Respublikalıq ilmiy-ámeliy konferenciya

MATERIALLARÍ

25-26-NOYABR 2022-JÍL

«Ta'limni takomillashtirishda
innovatsion uslubda o'qitish va tarbiyalash»
mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26 NOYABR 2022 YIL



NOKIS - 2022

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ HÁM ORTA ARNAWLÍ
BILIMLENDIRIW MINISTRIGI**

**ÁJINIYAZ ATÍNDAĞÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ**

**«Tálimdi jetilistiriwde innovaciyalıq usilda oqıtıl hám tárbiyalaw»
atamasındaǵı**

Respublikalıq ilmiy-ámeliy konferenciya

MATERIALLARÍ

25-26-NOYABR 2022-JÍL

**«Ta’limni takomillashtirishda
innovatsion uslubda o‘qitish va tarbiyalash» mavzusidagi**

Respublika ilmiy- amaliy anjuman

MATERIALLARI

25-26 NOYABR 2022 YIL

NÓKIS- 2022

GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASIGA OID BAJARILGAN ILMITY-TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

N.Sh.Shadiyeva –assistant o'qituvchi
Buxoro davlat universiteti, Buxoro sh.

Bugungi globallashuv davrda yoshlami xususan bo'lajak pedagogik kadrlami innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda avalambor raqobat muhitini shakllantirishni taqazo etadi. Rivojlangan davlatlarning tarixiy hayotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning rivojlanish strategiyasi ta'lim jarayoniga borib taqaladi.

Hukumatimiz tomonidan rivojlangan davlatlarning o'qitish metodikasini respublikamiz ta'lim jarayoniga tadbiq qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan respublikamiz uzlucksiz ta'lim tizimida "Science" – tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitishni joriy qilish masalasi ilgari surilmoqda. Mamlakatimizda har bir sohaning taraqqiy etishiga qaratilgan shart-sharoitlaming yaratilishi, innovatsion liyihalarning joriy etilishi yoshlarmiz uchun qator imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu esa bo'lajak kadrlami hozirgi zamон fan-tehnologiyalari asosida o'qitish va ijtimoiy foydali mahorat hamda ko'nikmamalakalarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida fikrlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish lozimligini ko'rsatadi. Tabiiy fanlardan "Geografiya" ta'limi mazmuni alohida ahamiyatga ega. Bunga sabab bugungi kunda butun yer sharida tasavvur qilingan va kutulmagan tabiat qonunlari asosida amalga oshayotgan insoniyat va tabiat o'rtafigani tabiiy muvozanatning buzilishi asosida tabiiy ofatlar masalan (yer qatlaming qizishini kundan-kunga oshib borishi, cho'llanish darajasini oshishi, Antarktida muzliklarining erishi, yer yuzidagi suv sathining ko'tarilishi, suv toshqini, zilzila; qattiq shamol, bo'ron va havo girdobi, sel; tog' ko'chkisi va yer ko'chishi; qor ko'chkisi; tabiiy sabablardan kelib chiqadigan yong'inlar, chaqmoq) insoniyatni larzaga solmoqda. Ushbu muvozanat buzilishini oldini olishning asosiy omili sifatida ta'kidlash mumkinki tabiat qonunlarini o'rganishni strategik davom ettirish, ilm-fanni rivojlanish jarayonini ta'lim tizimining barcha bo'g'inalarda yo'lga qo'yish va uni takomillashtirish butun dunyo hamjamiyatining dolzarb muammosiga aylanmog'i kerak.

Sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda yuqorida fikrlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy innovatsion ta'lim muhitini takomillashtirish muammolarini tadqiq etish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Buning uchun Geografiyaning mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilishi ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv dasturga joriy qilinayotganini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida tahlillar natijasi asosida keltingan xulosalarning matematik-statistik tahlili shuni ko'rsatdiki, geografiya o'qitish metodikasiga oid ilmiy-tadqiqod ishlari xorijiy davlatlar va respublikamizda juda ham kam amalga oshirilayotgani kuzatildi va quyidagicha tahliliy misollar keltirildi:

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Geografiya) ixtisosligi bo'yicha xorij hamda respublikamizda bajarilgan ilmiy-tadqiqod ishlarining mazmuni, mohiyati yuzasidan quyidagicha tahliliy misollar keltirish mumkin:

N.G.Lyuxinaning "6-8-sinf o'quvchilarining geografiya darslarida ta'lim modellaridan foydalanish metodikasi" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mazmuni shundan iboratki, geografiya fanini o'rganishda o'quv modellaridan foydalanish muammosi, o'rganishda geografiya o'qitishda modellardan foydalanishning zamoniaviy jihatlari (ilmiy, predmet va faoliyat), ko'rgazmali qurol sifatida modellarga nisbatan

an'anaviy yondashuvni qayta ko'rib chiqish zarurligi, o'quv modellari turlarining tasnifi mezonlar bo'yicha taqdim etdi va dizayn usuli, yangilik darajasi va o'qituvchi va foydalanishning o'quvchilar vazifalari va bosqichlarini aniqladi:[N. Lyuxina:3-40].

S.A.Mikitenkoning "Geografiya darslarida interaktiv va visual usullami qo'llash" (tabiiy geografiya misolida) mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida geografiya fanini o'qitish jarayonida interfaol audiovizual o'quv qorollaridan foydalanishning hozirgi mavjud yondashuvlari va ularning imkoniyatlari tahlili va bahosi amalgalashuvlari oshirdi, o'qitish jarayonini interfaol audiovizual vositalardan foydalanish asosida qurish uslubiy modelini ishlab chiqdi va interaktiv audiovizual axborot tashuvchilarning o'qitish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy interaktiv audiovizual o'quv qorollarining tasnifi taklif etdi:[A.Mikitenko: 5-12].

B.M. Abdurahmonovning "Maktab o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirishda ta'limgardoshlik vositalaridan foydalanish metodikasi (tabiiy geografiya misolida) mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida umumiy o'rta ta'limgardoshlik o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish jarayonini tasviriy-didaktik jihatlari, shakllanganlik darajalarini refleksiv tahlil qilish ta'limgardoshlik vositalari tasniflanishida ta'limgardoshlik muhit va ular orasidagi uzlucksizlik va uzviylikni hisobga olish asosida takomillashtirgan va tahliliy faoliyat natijalari xaritagrafik savodxonlikning kafolatlangan samaradorligi ko'rsatkichlari orqali aniqlashtirgan:[B.Abdurahmonov, 3-15].

F.A. Xamroyeva o'zining ishlarida mediatexnologik ta'limgardoshlik geografik fanlarga doir bilim, malaka va ko'nikmalami rivojlantirishdagi o'rni mediatexnologiyalarning tashkiliy (ijtimoiy, individual, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, pedagogik, psixologik) komponentlari mazmunini ochib berish orqali asoslagan va geografik fanlarni o'qitish jarayonlarini takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar (metodik, didaktik, psixologik) mediatexnologiyalarning xususiyatiga ko'ra tasniflash (audiovizual, multimedia, gipermatnli, xolografik) asosida aniqlashtirgan: [F.Xamroyeva: 5-10].

Quyidagi bajarilgan tadqiqot ishlarining matematik-statistik tahlillari keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Respublika bo'yicha himoya qilingan (PhD) va (DSc) dissertatsiya ishlari haqida ma'lumot

Ko'rsatkichlar	Jami	Jumladan		Shundan 2021 yilda	
		Fan doktori (DSc)	Falsafa doktori (PhD)	Fan doktori (DSc)	Falsafa doktori (PhD)
Ilmiy darajada tasdiqlanganlar soni	7535	1863	5672	351	1976

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki o'quv jarayonida dasturiy ta'limgardoshlik vositalaridan foydalanishning keng pedagogik imkoniyatlari qayd etilib, uning xususiyatlari, ta'limgardoshlik faoliyat vositasi sifatida ko'rib chiqish asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish daolzarb vazifalardan biri hisoblaniladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar: pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari, pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari, pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari, dasturiy ta'limgardoshlik texnologiyasi, dasturiy ta'limgardoshlik vositalarda o'quv faoliyatni boshqarish, dasturlash tillarida dasturiy ta'limgardoshlik vositalar yaratish texnologiyasi, elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari, prinsiplari, ovoz berish texnologiyasi, namoyish etuvchi, nazorat

qiluvchi, o'rgatuvchi dasturlar, dasturiy ta'lif vositalarning didaktik imkoniyatlari, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, o'quvchilarining psixofiziologik hususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, dasturiy ta'lif vositalarda o'quv faoliyatni boshqarish, pedagogik dasturiy ta'lif vositalami yaratishning texnik vositalari, elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmasi, elektron ma'lumotnomasi, elektron xrestomatiya, elektron katalog, elektron o'quv materiallarini yaratish dasturlarida ishlash, dasturiy ta'lif vositalar bilan ishlash, dasturiy ta'lif vositalar yaratish, avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlarda ishlash, elektron o'quv materiallarini yaratish dasturlarida ishlash asosida elektron o'quv materiallarini yaratish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov B.M. Maktab o'quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirishda ta'lif vositalaridan foydalanish metodikasi (tabiiy geografiya misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –N.: 2021 y. – 54 b.
2. Mikitenco S.A. Geografiya darslarida interaktiv va visual usullami qo'llash Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –Nijniy Nivgorod: 2006y. – 58 b.
3. Lyuxina N.G. 6-8-sinf sind o'quvchilarining geografiya darslarida ta'lif modellaridan foydalanish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. –San.P: 2005y. – 58 b.
4. Haydarova S.A. Maktab o'quvchilarining geografiya fanidan amaliy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi (8-9-sinf o'quvchilari misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.–Ch.: 2022 y. – 48 b.
5. A.R.Jo'ravayev, "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'lif vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari". Zamonaviy fan, ta'lif va tarbiyaning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. – Urganch. 2019-1.

ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАРНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ

Тожибоева Маҳтиё Аъзамжон қизи – Мұқимий номінадағы Құқон ДПИ, "География ва иқтисодий билим асослари" кафедрасы ўқытушчиси.

Глобаллашув шароитида эса ахборотларнинг ҳаддан ташқари кўплиги имкон қадар матнли маълумотлар ҳажмини камайтириб, кўпроқ визуаллашган ахборотлар билан бойитиш талаб килинмоқда. Бу эса ахборотларни визуал шакlda ифодалашга ёрдам берадиган таълим методлари, воситалари ёки технологияларидан фойдаланишини тақозо киласди.

Таълим жараёнида ўкув ахборотларини визуал шакlda ифодалашда инновацион характерга эга методлар, чунончи, уларнинг алоҳида гурухи бўлган график органайзерлар кенг имкониятга эга.

Н.Лупиани "график органайзер" тушунчасини шундай шарҳлади: ахборотларни визуал шакlda тўплаш, уларни ўзаро бир-бири билан боғлаш ёки тақдим килиш имконини берадиган инновацион характердаги метод ёки тузилма бўлиб, улар турли шаклларда кўлланилади [5]. Таянч тушунчанинг назарий жиҳатдан тавсифлашда яна қуйидаги ёндашувлар ҳам мавжуд: график (визуал) кўринишга эга интерфаол методлар [2, – 56-б.]; билим, концепция, ғоя ҳамда уларнинг ўртасидаги ўзаро алоқалар, муносабатларни инсон онгидаги билвосита шартли белгилар асосида акс эттирадиган ёзма коммуникация куроли [9, – С. 10]; "йирик ҳажмдаги ахборотларни мантикий бирлик асосда тартиблаштиришнинг тасвирий усули" [3].